

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEV SANJARBEK SOBIRJON O‘G‘LI

SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIGINI
TA‘MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Ergashev Sanjarbek Sobirjon o‘g‘li

Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta‘minlashning tashkiliy-
iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Эргашев Санжарбек Собиржон угли

Совершенствование организационно-экономических механизмов
ресурсосбережения на промышленных предприятиях 27

Ergashev Sanjarbek Sobirjon ugli

Improving organizational and economic mechanisms for ensuring
resource efficiency in industrial enterprises..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEV SANJARBEK SOBIRJON O‘G‘LI

SANOAT KORXONALARIDA RESURS TEJAMKORLIGINI
TA‘MINLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4653 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Burxanov Aktam Usmanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saidkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida resurs tejamkorligiga erishish va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda mavjud resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib, yuqori iste'mol darajasini ta'minlash asosiy muammo bo'lib kelgan. Jahonda resurslar cheklanib borayotgan bir sharoitda resurs samaradorligi va intensivligi indeksi bo'yicha 100 darajada global o'rtacha ko'rsatkich 47 koeffitsiyentni, eng yuqori erishilgani esa 64 koeffitsiyentni tashkil qiladi. Hatto eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar ham barqaror raqobatbardosh bo'lishdan, ya'ni aylanma iqtisodiyot darajasida nolga erishishdan ancha uzoqdir.¹ Shuningdek, oxirgi 50 yilda moddiy resurslardan foydalanish 3 barobarga o'sib, yillik o'sish o'rtacha 2,3 foizni tashkil etgan va 2020-yilda jami materiallar sarfi 106,6 milliard tonnadan oshgan. Global tabiiy resurslar iste'moli 2020-yilga nisbatan 2060-yilga kelib 60 foizga oshishi kutilmoqda.²

Jahon mamlakatlarining zamonaviy sanoat siyosati o'zining tarixiy evolyutsiyasi bilan barqarorlik, innovatsiyalar va tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanish yondashuvlariga ko'ra farq qilmoqda va sanoat tarmoqlarida chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik ishlab chiqarish amaliyotiga tobora ko'proq ahamiyat qaratilmoqda. Shunga ko'ra, xalqaro tadqiqotlarda sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli transformatsiyalash asosida resurs tejamkorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish ustuvor tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan **"O'zbekiston – 2030" strategiyasida** 47-maqсад sifatida "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" hamda 51-maqсад sifatida "“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun sanoatni barqaror rivojlanish maqsadlari va unga erishish, ilg'or resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirish, resurs salohiyati va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotini joriy etish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli transformatsiyalash asosida resurs tejamkorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish istiqbollari belgilab berish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 12-oktabrdagi PF–169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son "Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 7-avgustdagi PQ–286-son "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni

¹ <https://solability.com/the-global-sustainable-competitiveness-index/the-index/resource-intensity-index>

² <https://www.weforum.org/agenda/2024/03/sustainable-resource-consumption-urgent-un/>

rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 12-oktabrdagi PQ–392-son “Sanoat ishlab chiqarishida xom-ashyo uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 10-oktabrdagi PQ–388-son “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-dekabrda 684-son ““140 ta ilg‘or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish va “Sanoat ipotekasi” tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-iyuldagi 300-son “Ayrim sanoat sohalarida ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning atrof-muhitga va aholi salomatligiga salbiy ta’sirini kamaytirish va muqobil energiya resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda soha faoliyatiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishida mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Kramer S., Engell S., Van Berkel R., Fadeeva Z., Cainelli G., D’Amato A., Mazzanti M., Chen M., Xu X., Bag S., Rajput S., Singh S. P., Ghobakhloo M.³ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha MDH davlatlari olimlaridan Belyavsev Yu.M., Fayustov A., Kulakova Yu.N., Xolodov A.A., Ergashev R., Mirzayev Z., Sxovrebov E.S., Mamadaliyeva N.A., Antipova O.V., Komarov S.S., Shaxverdov A.S., Kanarev D.V., Anisimova V.Yu. lar tadqiqotlar olib borganlar⁴.

³ Krämer S., Engell S. Energy and Resource Efficiency in the Process Industries //Resource Efficiency of Processing Plants: Monitoring and Improvement. – 2018. – C. 3-18.; Van Berkel R., Fadeeva Z. Role of industries in resource efficiency and circular economy //Waste Management as Economic Industry Towards Circular Economy. – 2020. – C. 171-183.; Cainelli G., D’Amato A., Mazzanti M. Resource efficient eco-innovations for a circular economy: Evidence from EU firms //Research Policy. – 2020. – T. 49. – №. 1. – C. 103-827.; Chen M. et al. Impact of technological innovation on energy efficiency in industry 4.0 era: Moderation of shadow economy in sustainable development //Technological Forecasting and Social Change. – 2021. – T. 164. – C. 120-521.; Xu X. et al. Industry 4.0 and Industry 5.0 – Inception, conception and perception //Journal of manufacturing systems. – 2021. – T. 61. – C. 530-535.; Bag S. et al. Key resources for industry 4.0 adoption and its effect on sustainable production and circular economy: An empirical study //Journal of Cleaner Production. – 2021. – T. 281. – C. 125-233.; Rajput S., Singh S.P. Industry 4.0 – challenges to implement circular economy //Benchmarking: An International Journal. – 2021. – T. 28. – №. 5. – C. 1717-1739.; Ghobakhloo M. Industry 4.0, digitization, and opportunities for sustainability //Journal of cleaner production. – 2020. – T. 252. – C. 119-869.

⁴ Белявцев Ю. М. Антикризисная политика управления ресурсосбережением на основе концепции маркетинга. Диссертация диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (по отраслям сферы деятельности, в т.ч.: маркетинг) Донецк – 2020.; Фаюстов А. Утилизация промышленных отходов и ресурсосбережение. Основы, концепции, методы. – Litres, 2022.; Кулакова Ю. Н. Формирование и реализация стратегии операционной деятельности промышленного предприятия: теория и методология: дисс.... доктора экономических наук: 08.00. 05/Кулакова Юлия Николаевна //Челябинск. – 2020.; Холодов А. А. Совершенствование организационно-экономического механизма управления ресурсами строительно-монтажной организации на примере ООО «Полос Строй»: дис. – Сибирский федеральный университет, 2021.; Эргашев Р., Мирзаев З. Суть экономического роста промышленных предприятий //Экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 898-904.; Цховребов Э. С. Ресурсосбережение: основные этапы становления, теории и методы,

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan Burxanov A.U., Kurbonov X.A., Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Avazov N.R., Yodgorova Sh., Xakimov Z.A., Raximov A., Eshonqulov J., Abdullayeva M.K., Xolbekova F.R., Doniyorova Sh.D., Bazarov Sh., Tursunov B.O. va boshqalar to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishgan.⁵

Mazkur tadqiqotlarda sanoat korxonalarining qiymat zanjirini yaratishda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish, resurs xavfsizligini ta‘minlash, sanoat korxonalari faoliyatida mahalliy resurslardan foydalanish asosida eksport imkoniyatlarini oshirish, umuman sanoatda resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish kabi masalalarda tadqiqotlar olib borilgan. Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan sanoat korxonalarini barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda resurs samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoatda resurs tejamkorligini ta‘minlash orqali barqaror rivojlanish konsepsiyalarini aniqlash;

ilg‘or resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari, qonuniyatlari va ilmiy asoslarini aniqlash;

jahon mamlakatlarining zamonaviy sanoat siyosati va resurs tejamkor usullardan foydalanish tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini belgilash;

тенденции и перспективы развития в промышленности и строительной индустрии России //Вестник МГСУ. – 2020. – Т. 15. – №. 1. – С. 112-158.; Мамадалиева Н. А. и др. Ресурсосбережение-основа экономического роста //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 427-433.; Антипова О. В. Теоретические основы ресурсосбережения //Вестник Академии знаний. – 2020. – №. 1 (36). – С. 19-25.; Комаров С. С., Шахвердов А. С. Управленческие основы ресурсосбережения на современных промышленных предприятиях добывающей промышленности //Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. – 2023. – №. 3. – С. 23-32.; Канарев Д.В., Анисимова В.Ю. Основы управления ресурсосбережением на промышленных предприятиях //Молодежь и будущее: управление экономикой и социумом. – 2020. – С. 122-124.

⁵ Burxanov A.U., Kurbonov X.A. Худудларда маҳаллий бюджетлар даромадлар манбаини кенгайтириш йўллари (Қашқадарё вилояти мисолида) // – Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2018 йил.; Махмудов Н. М., Хомидов С. О., Авazov Н. Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида sanoat тармоқларини ривожлантириш //Монография)–Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи. – 2020. – Т. 228.; Ёдгорова Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тўқимачилик sanoatини ривожлантириш йўналишлари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 119-130.; Хақимов З. А. Трансформация кластеров “Индустрия 4.0” //Инновации и инвестиции. – 2022. – №. 3. – С. 207-213.; Рахимов А., Эшонқулов Ж. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy kувватини ошириш механизми //Iqtisodiyot va ta‘lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 390-395.; Абдуллаева М.К., Холбекова Ф.Р. Ўзбекистоннинг яшил иқтисодиётга ўтиши ва муқобил энергиядан фойдаланишни жорий этиш механизмлари //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 24. – С. 89-98.; Дониёрова Ш. Д. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslaridan samarali fойдаланиш йўллари ва истикболлари //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 149-153.; Базаров Ш. Иқтисодий resurslardan samarali fойдаланишда яшил молиялаштириш амалиёти //Science Promotion. – 2024. – Т. 8. – №. 1. – С. 428-431.; Tursunov B. O. et al. Econometric Assessment of Factors Affecting the Development of Small Textile Enterprises in Namangan Province under the Conditions of Development of the Digital Economy //Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2023. – С. 252-259.;

O‘zbekiston sanoatini barqaror rivojlanish maqsadlari va unga erishish jarayonlarini, resurs salohiyati va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotini kompleks baholashga yondashuvlarni ishlab chiqish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish samaradorligini tahlil qilish;

sanoatda resurs tejamkorligini ta’minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

sanoat korxonalarining ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash asosida resurs tejamkorligiga erishish imkoniyatlarini belgilab berish;

sanoatni raqamli transformatsiyalash asosida resurs tejamkorligiga erishish mexanizmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalari, jumladan, mahalliy kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, kuzatuv, statistik tahlil, korrelatsion, regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarining resurs tejamkor yuqori texnologik ishlab chiqarish tizimida yashil iqtisodiyot strategiyalari, qiymat zanjirida “Smart Grid” texnologiyalari, tizimda raqamlashtirishni rag‘batlantiruvchi dastaklar orqali barqaror rivojlanish maqsadlarini ta’minlash asoslangan;

sanoat korxonalarida resurslarni me‘yoriy va mutanosib rejalashtirish va resurs salohiyatini moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari va moliyaviy faoliyat xarajatlar o‘shish sur‘ati indeksining jamlanma integral indeksli usulda baholash orqali muntazam monitoringga erishish asoslangan;

sanoat korxonalarini ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishga tayyorligini $0,71 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 1$ va qabul qilishning $0 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,29$ quyi, $0,29 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,56$ imkoniyati, $0,57 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,70$ yuqori me‘yoriy darajalarida strategik qarorlar qabul qilish asoslangan;

sanoat korxonalarida resurslarni rejalashtirish tizimlarini (ERP) joriy etishda samaradorlikning salmoq koeffitsiyentlari (mezonlari) moddiy resurslar bo‘yicha ($A=0,23$), ishchi kuchidan foydalanish ($B=0,29$), moliyaviy resurslar bo‘yicha ($S=0,19$) va axborot resurslari bo‘yicha ($D=0,29$) optimal darajada bo‘lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoatda resurs tejamkorligini ta’minlash orqali barqaror rivojlanish yo‘nalishlari, vositalari va mexanizmlari taklif etilgan;

resurs samaradorligiga nisbatan sanoat siyosatining yondashuvlari jahon mamlakatlari tajribalari asosida qiyosiy tahlil qilingan va ustuvor yo‘nalishlarni O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritilgan;

sanoat korxonalari tomonidan resurs salohiyatini kompleks baholash uchun resurs samaradorligi ko‘rsatkichlari va indikatorlari taklif etilgan;

sanoat korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini indeks baholash usuli takomillashtirilgan;

sanoat korxonalarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqarish mexanizmi va barqarorligini ta'minlash konsepsiyasi taklif etilgan;

O'zbekiston sanoat korxonalarining texnologiyani qabul qilish darajasini aniqlashning metodologik asosi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari ishonchliligi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, axborotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi va ularning samarali tahlili, jumladan, maxsus dasturlash tizimidan foydalanish orqali qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish, sanoatni barqarorlik maqsadlariga erishish strategiyasini shakllantirish hamda takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan respublika sanoat korxonalarini resurs salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmi va eksportini oshirish, tarmoqni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, muqobil energiya manbalariga o'tkazish, yashil iqtisodiyot konsepsiyalarini joriy etish, aylanma iqtisodiyotni shakllantirish mexanizmlari va strategiyalarini ishlab chiqish hamda bu borada amalga oshiriladigan loyihalarni ishlab chiqish va tarmoqni rivojlanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat korxonalarining resurs tejamkor yuqori texnologik ishlab chiqarish tizimida yashil iqtisodiyot strategiyalari, qiymat zanjirida "Smart Grid" texnologiyalari, tizimda raqamlashtirishini rag'batlantiruvchi dastaklar orqali barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash bo'yicha asoslangan takliflar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-noyabrdagi 08/25-1-24450-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik asosida olingan natijalar bo'yicha berilgan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 9-bandini "Yirik ishlab chiqarish korxonalarida quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali energiyani tejash, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha texnik siyosatni ishlab chiqib, uning ko'rsatkichlarini yillik biznes-rejalarga kiritish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlari" ishlab chiqishda foydalanilgan;

sanoat korxonalarida resurslarni me'yoriy-mutanosib rejalashtirish va resurs salohiyatini moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari va moliyaviy faoliyat xarajatlari o'sish sur'atining indekslarini jamlanma integral indeks usuli yordamida baholash orqali muntazam monitoringga erishish bo'yicha takliflar "O'zbekkimyomash zavodi" AJ faoliyatini baholashda foydalanilib, sinovdan o'tkazilgan va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-noyabrdagi 08/25-1-2450-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida yirik sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirishga erishish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, sanoat korxonalarini faoliyatida strategik tartibga solish mexanizmlaridan foydalanilishi natijasida texnologik modernizatsiyaga erishildi;

sanoat korxonalarini ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishga tayyorligini $0,71 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 1$ va qabul qilishning $0 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,29$ quyi, $0,29 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,56$ imkoniyati, $0,57 \leq \alpha_n, \beta_n, \gamma_n \leq 0,70$ yuqori me'yoriy darajalarida strategik qarorlar qabul qilish asoslangan takliflar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-noyabrdagi 08/25-1-24450-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etilishi natijasida sanoat korxonalarida moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha innovatsion loyihalar amalga oshirilgan. Shuningdek, yirik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni raqamli boshqaruv texnologiyalari (ERP, CRM tizimlari) hamda moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlaridan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

sanoat korxonalarida resurslarni rejalashtirish tizimlarini (ERP) joriy etishda samaradorlikning salmoq koeffitsiyentlari (mezonlari) moddiy resurslar bo'yicha ($A=0,23$), ishchi kuchidan foydalanish ($B=0,29$), moliyaviy resurslar bo'yicha ($S=0,19$) va axborot resurslari bo'yicha ($D=0,29$) optimal darajada bo'lishi asoslangan takliflar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-noyabrdagi 08/25-1-24450-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik sanoat korxonalarida resurslarni rejalashtirish tizimlarini (ERP) joriy etish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilib, jumladan "O'zbekkimyomash zavodi" AJda moddiy resurslardan foydalanish samaradorlik darajasini 6,9 foizga oshirishga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Respublika ilmiy jurnallarida 3 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola va 6 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 151 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot mavzusining ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbig'i, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish konsepsiyalari aniqlangan, tizimlashtirilgan va ularning zamonaviy yondashuvlari aniqlangan. Ilg'or resurs tejamkor texnologiyalarga asoslangan sanoat siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-mexanizmlarini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Jahon mamlakatlarining zamonaviy sanoat siyosati va resurs tejamkor usullardan foydalanish tajribalari o'rganilib, ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.


Jahon mamlakatlarining iqtisodiy tizimlarida o'ziga xos yondashuvlar asosida sanoat siyosatini ishlab chiqadilar va uni amalga oshirish ustuvor maqsadlar sifatida qaraladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlarning asosiy maqsadi raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, bugunga kelib barqaror rivojlanishga erishish, resurs imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda yashil iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilmoqda.

Sanoatning barqaror rivojlanishini hisobga olgan holda, korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, resurs imkoniyatlarini kengaytirish va texnologik bazani mustahkamlash, investitsiyalarni ko'proq jalb qilish, shu jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini keng joriy etishga qaratilgan yo'nalishlar Yangi O'zbekiston sanoat sohalarida amalga oshirilayotgan barqaror rivojlanish maqsadlari sifatida qaralmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda sanoatning barqaror rivojlanishi resurslardan (masalan, moddiy va nomoddiy, minerallar, energiya, suv) oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali “Sanoat 4.0” konsepsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekistonda sanoat siyosatini resurs va ekologik samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga ahamiyat qaratilishi lozim. Zamonaviy iqtisodiyoti nazariyalarida *ресурсоэкономическая* sanoat siyosatining beshta asosiy tamoyili mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga e'tibor qaratish, aylanma iqtisodiyot tizimini yaratish, sanoatning ishlab chiqarish va texnologik rivojlanishi (texnologik murakkablik darajasini oshirish), barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash uchun moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan motivatsiya vositalaridan muvozanatli foydalanish, ochiqlik va foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

Umuman olganda sanoatni resurs tejamkorlikka asoslangan barqaror rivojlantirish yoʻnalishlarini 2 ta determinantlar asosida amalga oshirish lozim.

Birinchi yoʻnalish, mavjud boʻlgan eng yaxshi texnologiyalar (Best Available Technologies (BAT) yondashuvi asosida sanoat siyosatini amalga oshirish. Bu ishlab chiqarishning yuqori resurs samaradorligini, salbiy taʼsirlarning oldini olishni yoki kamaytirishni (nazorat qilishni) va umuman atrof-muhitni muhofaza qilishning ishonchli darajasini taʼminlaydigan ilgʻor texnologiyalardir. Bugungi kunda BAT konsepsiyasi dunyoning koʻplab mamlakatlarida sanoat siyosatining muhim va samarali vositasi hisoblanadi. Shunga koʻra, mamlakatda eng yaxshi texnologiyalar amaliyotidan foydalanishga qaratilgan yondashuvlar asosida sanoatning resurs talab qiluvchi tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish ustivor vazifa sifatida qaratilishi lozim.



1-rasm. Sanoatda resurs tejamkorligini taʼminlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari⁶

⁶ Muallif ishlanmasi

Ikkinchi yo‘nalish, “Yashil sanoat siyosati (Green industrial policy)”ga o‘tishdir. Yashil sanoat siyosatiga o‘tish barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish eng maqsadga muvofiq mexanizm sifatida qaralishi lozim. Yashil sanoat siyosati mamlakatning amaldagi sanoat siyosatidan tubdan farq qiluvchi va davlat iqtisodiyotini xomashyoga asoslangan sanoatdan (resurslar eksportiga asoslangan sanoatdan) innovatsion rivojlanishga tizimli va samarali o‘tishni ta‘minlaydigan yuqori texnologiyali va raqobatbardosh sanoatni yaratishdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, O‘zbekiston sanoatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sifatida “Sanoat 4.0” konsepsiyalariga o‘tishni tezlashtiruvchi eng yaxshi texnologiyalar va yashil sanoat siyosatini qo‘llab-quvvatlash, mazkur yo‘nalishlarni rag‘batlantiruvchi vositalardan foydalanish, ilmga asoslangan sanoat siyosatini yuritish, hamda xalqaro hamkorlik doirasini kengaytirish talab etiladi. Bunday sanoat siyosatini yuritishda esa ko‘plab iqtisodiy dastaklar va mexanizmlardan foydalanish talab etiladi. Resurs tejamkorlikka asoslangan sanoatga o‘tish uchun texnologik taraqqiyotga xissa qo‘shuvchi “Smart Grid”, AI sun‘iy intellekt texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, ekologik xavfsiz kabi siyosat yuritish uchun “CO₂ emissiyasi texnologiyalaridan foydalanishga yuqori ahamiyat qaratish kerak.

Hozirgi sanoat siyosati va texnologiyani rivojlantirish kun tartibidagi eng muhim savol – sanoat rivojlanishining o‘sish sur‘atlarini kamaytirmasdan, resurslar samaradorligini to‘liq oshirishdir. Xorijiy amaliyotda har xil turdagi siyosat, ularning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish tajribasi allaqachon mavjud.

Global sanoat siyosati atrof-muhit muammolari va barqaror rivojlanish zaruriyatiga javoban rivojlandi. Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Yaponiya va boshqa bir qancha davlatlar qazib olinadigan yoqilg‘iga qaram bo‘lgan sanoatdan resurslarni tejaydigan va kam uglerodli sanoat tarmoqlariga o‘tishga qaratilgan siyosatlarini isloh qildi. Ushbu evolyutsiya me‘yoriy-huquqiy bazalar, turli xalqaro kelishuvlar, xalqaro shartnomalar va ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillarning kombinatsiyasi bilan ta‘minlanadi.

Xalqaro tajribalar o‘rganilganda Yevropa Ittifoqi (YI) resurslarni tejaydigan sanoat usullarini joriy etishda yetakchi mamlakat sifatida, ittifoqqa a‘zo mamlakatlarda mazkur yo‘nalish bo‘yicha samarali siyosat ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Yevropa Ittifoqi sanoatida resurslardan samarali foydalanish siyosati⁷

Mamlakat	Asosiy strategiyalar	Yo‘nalishlar	Ta‘sir etish
Germaniya	Energiya o‘zgarishi	Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish	Energiya aralashmasida qayta tiklanadigan manbalar ulushining ortishi
Niderlandiya	Milliy aylanma iqtisodiyot rejasi	Chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash	Asosiy sanoat tarmoqlar bo‘yicha qabul qilingan aylanma iqtisodiyot
Fransiya	Yashil sanoat rejasi	Kam uglerodli sanoat	Sanoat chiqindilarini 30% ga kamaytirish
Shvetsiya	Sanoatga o‘tish dasturi	Energiya samaradorligi	Ishlab chiqarishda energiya tejash

⁷ European Environment Agency (2021). Resource efficiency and the circular economy in Europe 2021 – even more from less. EEA Report No 1/2021 Available at: <https://www.eea.europa.eu/publications/EEA-2021-the-year-in-brief/circular-economy-and-resource-use>

Umuman olganda, Germaniyaning “Sanoatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish”, Niderlandiyaning “Sanoatning chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash tizimini takomillashtirish”, Fransiyaning “Kam uglerodli sanoat” siyosati, Shvetsiyaning “Sanoatda energiya samaradorligini oshirish”, Yaponiyaning “Sog‘lom moddiy-sikl jamiyatini tashkil etish siyosati”, Xitoyda ishlab chiqarishning resurslarni tejaydigan va sanoatda ilg‘or ishlab chiqarish usullariga ustuvorlik berish siyosati, AQSh ishlab chiqarish sektori aqlli tarmoqlar, qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotlari kabilardan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish orqali Sanoat 4.0 ga o‘tishi bo‘yicha aniq siyosat ishlab chiqishga ustuvorlik berilishi lozim. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblangan Braziliya va Hindistonda davlat-xususiy sheriklik orqali yashil sanoat loyihalarini ilgari surish tajribasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu siyosat manfaatdor tomonlari uchun barqaror rivojlanish tashabbuslarida hamkorlik qilish uchun ekotizimlar yaratish va shu bilan sanoat darajasida resurslar samaradorligini oshirishga intilmoqda.


Umuman olganda, sanoat siyosatining kelajagi resurslarni tejaydigan usullar, qayta tiklanadigan energiyani o‘zlashtirish va barqaror rivojlanishga erishish maqsadlarini o‘zida ifodalaydi va bundan sanoat siyosatini O‘zbekiston amaliyotida foydalanish orqali sanoatni barqaror rivojlantirish maqsadlariga erishiladi.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida resurs tejamkorlikni ta’minlanish holati va imkoniyatlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston sanoatining barqaror rivojlanish maqsadlari va unga erishish jarayonlari tahlil qilingan. Sanoat korxonalarida resurs salohiyati va tejamkor ishlab chiqarish amaliyotini kompleks baholashga yondashuvlar ishlab chiqilgan va yirik sanoat korxonalarini misolida sinovdan o‘tkazilgan. Sanoat korxonalarining resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish samaradorligi tahlil qilish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrlarda sanoatni rivojlantirishga yuqori ahamiyat qaratib, texnologik innovatsiyalarga sarmoya kiritish, modernizatsiyalash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish uchun klaster usullaridan foydalanish kabilarga alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Shuningdek, sanoat infratuzilmasini yaratish, jumladan transport tarmoqlari, kommunal va boshqa muhim infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, savdo va tijorat faoliyatiga va iqtisodiy integratsiyaga ko‘maklashish hamda iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun asos yaratishni rag‘batlantirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sanoat siyosati YAIM tarkibida uning ulushini yuqori o‘sishini ta’minlagan. Jumladan, 2010-yilda YAIM tarkibida sanoatning ulushi 2000-yilda 16,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilda 18,7 foizni, 2020-yilda esa 26,8 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa mazkur ko‘rsatkich 26,1 foizni tashkil etganligi, boshqa sohalarga nisbatan sanoatning yuqori darajada rivojlanayotganligini anglatadi (2-rasm).

Sanoat 2000–2022-yillarda o‘rtacha 5,2 foiz o‘sish tendensiyasini saqlab qolgan bo‘lib, so‘nggi 10 yillikda esa mazkur tendensiya 5,7 foizni, so‘ngi 5 yilda esa 6,2 foizni tashkil etgan. Amaldagi narxlarda 2000-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1888,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2010-yilda 38119 mlrd so‘mni, 2020-yilda esa 368740,2 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunlariga ko‘ra 553265,6 mlrd so‘m mahsulot ishlab chiqarilgan.



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi,⁸ (foizda)

Ma’lumki, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflaridir. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg‘i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari va boshqa xarajatlar yotadi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarini tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari 2018-yilda 88910,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 365898,1 mlrd. so‘m bo‘lgan. Jami xarajatlar tarkibida ishlab chiqarish moddiy xarajatlarning ulushi 2018-yilda 76,8 foizni, 2019-yilda 81,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ham 76,7 foizni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar ulushi yuqoriga oshgan bo‘lsa, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar ulushi esa eng past ulushga ega bo‘lgan (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi,⁹ (mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish xarajatlari*	mlrd. so‘m	88910,2	115913,8	152074,2	210520,4	365898,1
	foizda	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	mlrd. so‘m	68254,0	94174,8	118670,7	165204,6	280726,3
	foizda	76,8	81,2	78,0	78,5	76,7
ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari	mlrd. so‘m	6812,0	8274,7	12621,4	16986,2	27665,2
	foizda	7,7	7,1	8,3	8,1	7,6
ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar	mlrd. so‘m	1670,6	1874,8	1536,2	2029,9	2359,7
	foizda	1,9	1,6	1,0	1,0	0,6
ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar amortizatsiyasi	mlrd. so‘m	6325,4	5565,0	11710,0	16683,0	44867,0
	foizda	7,1	4,8	7,7	7,9	12,3
ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar	mlrd. so‘m	3848,2	6024,5	7535,9	9616,7	10279,9
	foizda	4,3	5,2	5,0	4,6	2,8

*kichik korxonalar, mikrofirmalar va notijorat tashkilotlarsiz


⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston sanoati. Toshkent – 2023. 81-bet

Moddiy resurslarga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish sanoat korxonalarini samarali boshqarishning hal qiluvchi jihati hisoblansa-da, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar moddiy resurs sarflarini kamaytirishga imkon bermagan.

Sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligi mahsulot ishlab chiqarish uchun etarli darajada resurslarning mavjudligi va ular ustidan nazoratni oʻrnatish imkoniyati bilan belgilanadi. Resurs salohiyatini korxonaning iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida belgilash lozim, u raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun ichki imkoniyatlarni (ishlab chiqarish salohiyatini) tavsiflaydi va ularning muvozanatli kombinatsiyasi asosida ishlab chiqarish jarayonini zarur resurslar bilan taʼminlashning yaxlit qobiliyatini aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan uni baholashga boʻlgan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim yoʻnalish hisoblanadi.

Sanoat korxonalarining rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish biznesdagi oʻzgarishlar natijalari koʻrsatkichlarini, moddiy resurslar, inson mehnat resurslari hamda moliyaviy resurslardan qay darajada foydalanayotganligini baholash orqali strategik maqsadlarga erishish yoʻllari koʻrsatib beriladi. Sanoat korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks baholash metodologiyasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Sanoat korxonalarining resurslardan foydalanish samaradorligini indeksli baholash metodologiyasi¹⁰

Moddiy xarajatlar korxonaning asosiy moddiy resurslarga qilingan xarajatlaridan iborat boʻlganligi uchun resurs samaradorligini baholashda oʻsish surʼatlari indeksidan foydalanish mumkin. Moddiy xarajatlar oʻsish surʼatlari indeksini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

¹⁰ Muallif ishlanmasi

$$I_{ich/mx(t)} = K_{ich(t)}/K_{mx(t)} \quad (1)$$

Bunda:

$I_{ich/mx(t)}$ — moddiy xarajatlarning o‘shish sur‘atlari indeksi;

$K_{ich(t)}$ – t yilida ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati;

$K_{mx(t)}$ – t yilida moddiy xarajatlarning o‘shish sur‘ati.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda esa mehnat xarajatlarining o‘shish sur‘atlari indeksidan foydalanish tavsiya etiladi va quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$I_{ich/ix(t)} = K_{ich(t)}/K_{ix(t)} \quad (2)$$

Bunda:

$K_{ix(t)}$ – t yilida mehnat xarajatlarining o‘shish sur‘ati

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha o‘shish sur‘atlari indeksini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$I_{ich/mf(t)} = K_{ich(t)}/K_{mf(t)} \quad (3)$$

Bunda:

$K_{mf(t)}$ – t yilida moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarning o‘shish sur‘ati.

Resurs salohiyatining integral ko‘rsatkichi resurslar salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari indekslarini o‘rtacha, minimal va maksimal qiymatlari asosida belgilash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$I_j = \frac{\sum_{i=1}^n I_{ij}}{n} \rightarrow (max, min, mode) \quad (4)$$

Bunda:

I_j – j yil uchun jamlanma integral ko‘rsatkichlari;

I_{ij} – resurslar salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari indekslari;

n – ko‘rsatkichlar soni;

Sanoat korxonalarining resurs salohiyatining integral ko‘rsatkichi resurslar salohiyatini jamlanma integral ko‘rsatkichlarini quyidagi me‘zonlar asosida baholanadi:

$I_j \geq 1$ bo‘lsa, sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish oldingi yilga nisbatan samarali;

$0 \leq I_j \leq 1$ bo‘lsa, sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish oldingi yilga nisbatan samarasiz;

Yuqorida tavsiya etilgan usullarga tayangan holda sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini kimyo korxonalarida misolida tahlili amalga oshiriladi.

Bugungi kunda “O‘zbekkimyomash zavodi” AJ O‘rta Osiyoda bosimli idishlar va asboblardan, jumladan, kimyo, neft-kimyoda, gazni qayta ishlash va boshqa tarmoqlar uchun bosimli idishlar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi korxonalar hisoblanadi.

Keltirib o‘tilgan metodologik yondashuv asosida “O‘zbekkimyomash zavodi” AJning resurslardan foydalanish samaradorligini 2016–2023-yillardagi faoliyati uchun baholash natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Jamiyatning oldingi yillarga nisbatan ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati 2021-yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

Bunga 2020-yildagi Covid-19 pandemiyasi sabab bo'lgan. Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum 2019-yilda 212,4 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 58,2 mlrd.so'mni, 2023-yilda esa 13,5 mlrd. so'mni tashkil etgan. Jamiyatning mahsulot ishlab chiqarish hajmini pasayishi o'z navbatida foydaning pasayishiga olib kelgan, natijada korxonaning 2020-yildagi yalpi foydasi 13,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 3,3 mlrd. so'mni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval

“O‘zbekkimyomash zavodi” AJning resurslardan foydalanish samaradorligini iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholash natijalari¹¹

Ko‘rsatkichlar nomi	2016	2018	2020	2022	2023
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum, ming so‘m	96335,8	169083,9	107125,0	58180,5	13497,1
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi, ming so‘m	65835,0	125641,9	93881,4	55500,8	16883,0
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari), ming so‘m	30500,7	43442,0	13243,7	2679,7	3385,9
Moddiy xarajatlar, ming so‘m	15484,1	25467,3	18550,2	28674,7	9775,5
Mehnat xarajatlari, ming so‘m	2093,6	2642,7	4896,0	579,2	5649,2
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, ming so‘m	497,8	980,9	1372,2	485,1	312,2
Tannarxda moddiy xarajatlar ulushi, foizda	23,52	20,27	19,76	51,67	57,90
Tannarxda mehnat xarajatlar ulushi, foizda	3,18	2,10	5,22	1,04	33,46
Tannarxda moliyaviy xarajatlar ulushi, foizda	0,76	0,78	1,46	0,87	1,85
O‘shish suratlari hisoblash					
Ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati	1,09	1,49	0,50	0,53	0,23
Moddiy xarajatlar o‘shish sur‘ati	0,98	1,43	1,17	0,50	0,64
Mehnat xarajatlarning o‘shish sur‘ati	1,27	1,36	0,26	0,24	1,26
Moliyaviy faoliyat xarajatlarning o‘shish sur‘ati	1,02	1,53	0,72	0,56	0,30
Indekslarni hisoblash					
Moddiy xarajatlar o‘shish sur‘ati indeksi	1,11	1,04	0,43	1,06	0,36
Mehnat xarajatlarning o‘shish sur‘ati indeksi	0,86	1,09	1,97	2,23	0,18
Moliyaviy faoliyat xarajatlarning o‘shish sur‘ati indeksi	1,07	0,97	0,70	0,94	0,76
Resurs salohiyatining integral bahosi	1,01	1,03	1,03	1,41	0,44

Inqirozli vaziyatlarda korxonalar o‘zining resurs tejamkorlikka qaratilgan chora-tadbirlari asosida imkon qadar yumshatishga harakat qilgan. Sababi moddiy xarajatlarning tahlil yillarida mahsulot tannarxining yillik o‘shish tendensiyalaridan ham pastroq saqlashga harakat qilgan. Ayniqsa moddiy resurs sarflari 2016-yilda 23,52 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-2020-yillarda mazkur ko‘rsatkichning eng past natijalari qayd etilgan. 2022-2023-yillarda esa bu ko‘rsatkichlarning yuqori o‘shish holati kuzatilgan. Buning asosiy sababi xom-ashyo narxlarining oshib borishi hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra “O‘zbekkimyomash zavodi” AJ O‘zbekistonda kimyo uskunalari ishlab chiqaruvchi eng yirik sanoat korxonasi sifatida, resurslardan samarali foydalanish orqali energetika sektori va kimyo sanoatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zavod mahsulotlarining 95 foizi mahalliy lashtirilgani va ichki resurslardan foydalanishi, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish samaradorligini oshirishga olib kelmoqda.

¹¹ “O‘zbekkimyomash zavodi” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan natijalar


Dissertatsiyaning “**Sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari**” deb nomlangan uchinchi bobida sanoatda resurs tejamkorligini ta’minlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar tayyorlangan. Sanoat korxonalarida ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari asosida resurs tejamkorligiga erishish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiyalash asosida resurslarni rejalashtirish tizimlarini (ERP) joriy etish mexanizmini taklif etilib, uning samaradorligi aniqlangan.

Barqarorlik ko‘p jihatdan sanoat korxonasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiylikining miqdoriy dalili bo‘lib, uning salbiy buzilishlarga dosh berish qobiliyatini tavsiflovchi, o‘z vaqtida mavjud bo‘lganligi haqidagi va iqtisodiy subyekt sifatida hayotiy g‘oyaga asoslanadi. Shu sababli, konsentrlangan shaklda sanoat korxonasining resursni tejash orqali barqarorlikni ta’minlash konsepsiyasi maqsadni (jarayonning ongli ravishda yo‘naltirish predmetini), tamoyillarni (jarayonning xatti-harakatlari bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqiladigan umumlashtirishlar), yondashuvlarni (yechim usullarining umumiy yo‘nalishlari) va qoidalarini (asosiy qoidalarni belgilab beradi) belgilaydi, vazifalarni shakllantiradi (nima qilish kerak), usullarni (natijaga erishish usullarini) va vositalarni (maqsadga erishish uchun vositalar to‘plamini) tartibga soladi, maqsadli rivojlanish jarayonining barqarorligini ta’minlashning istalgan natijalarini belgilaydi. Sanoat korxonasining iqtisodiy va xo‘jalik boshqaruvi tizimining samaradorligini ta’minlash uchun zarur va yetarli shartlarni belgilaydi. Sanoat korxonasining barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi 4-rasmda keltirilgan.

